

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 2, 2024 Vol. 1
ISSN: 2181-2438



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT
RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

ISSN 2181-2438
VOLUME 1, ISSUE 2
JUNE, 2024



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 1, ISSUE 2 JUNE, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

Founder of the scientific and technical journal “Journal of Transport” – Tashkent State Transport University, 100167, Republic of Uzbekistan, Tashkent, Temiryo‘lchilar str., 1, office: 465, e-mail: publication@tstu.uz.

The “Journal of Transport” publishes the most significant results of scientific and applied research carried out in universities of transport profile, as well as other higher educational institutions, research institutes, and centers of the Republic of Uzbekistan and foreign countries.

The journal is published 4 times a year and contains publications in the following main areas:

- Business and Management;
 - Economics of Transport;
 - Organization of the Transportation Process and Transport Logistics;
 - Rolling Stock and Train Traction;
 - Infrastructure;
 - Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields; Technology and Organization of Construction, Management Problems;
 - Water Supply, Sewerage, Construction Systems for Water Protection;
 - Technosphere Safety;
 - Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications, Electrical Engineering;
 - Materials Science and Technology of New Materials;
 - Technological Machines and Equipment;
 - Geodesy and Geoinformatics;
 - Car Service;
 - Information Technology and Information Security;
 - Air Traffic Control;
 - Aircraft Maintenance;
 - Traffic Organization;
 - Operation of Railways and Roads;
-

Tashkent State Transport University had the opportunity to publish the scientific-technical and scientific innovation publication “Journal of Transport” based on the Certificate No. 1150 of the Information and Mass Communications Agency under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. Articles in the journal are published in Uzbek, Russian and English languages.

N. Mukhammadiev, G.B. Malikov	
<i>Analysis of the physical and mechanical properties of fine-grained concrete with superplasticizers and hydrophobic additives</i>	9
Kh.M. Nurmatov, B.Ye. Medeshev, M.M. Botirova	
<i>Earthquakes and measures to mitigate their impact.....</i>	13
S.M. Suyunbaev, Sh.B. Jumaev	
<i>Development of a mathematical model for linking wagons to a schedule thread on railway sections.....</i>	16
V. Zakirov, E. Abdullaev	
<i>Evaluation the remote system quality indicators using a mathematical model</i>	20
G.A. Samatov, I.X. Absattorov, D.K. Khakimov,	
K.Sh. Matrasulov	
<i>Use of multi-criteria decision-making methods in solving the problem of location selection in the organization of transport-logistics centers</i>	25
N.J. Suyarov, E.Kh. Abdusamatov, U.I. Isokhanov	
<i>Improving the quality of passenger transportation services.....</i>	32
S.K. Turdibekov, Sh.Kh. Shermatov, E.X. Abdusamatov	
<i>The method of selecting the spreading disc of combined road machines (MAN CLA 18.280 4x2 BB CS45) by calculating the parameters</i>	36
M.M. Rasulmuhamedov, Sh.B. Shukurova	
<i>Options for solving two-dimensional elastic bodies using the finite element method</i>	40
J. F. Juraev, E.K. Ametova	
<i>Development of the button relay scheme and algorithm of the dial group microprocessor blocks controlling two combined shunting traffic lights of the railway automation and telemechanics system</i>	45
B.I. Abdullaev	
<i>Determination of service quality parameters and their weight in passenger transport</i>	50
N. Sulaymonov, M. Ikromov	
<i>Stages of application of the outsourcing matrix in the transport system</i>	56
U.A. Ziyamukhamedova, J.H. Nafasov, G.B. Miradullaeva,	
M.U. Rustamov, N.F. Makhamadieva	
<i>Study of mechanical properties of modified sulfur polymer composite</i>	60



Use of multi-criteria decision-making methods in solving the problem of location selection in the organization of transport-logistics centers

G.A. Samatov¹ ^a, I.X. Absattorov¹  ^b, D.K. Khakimov¹  ^c, K.Sh. Matrasulov¹  ^d

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

Transport logistics centers are one of the important links of the transport process in the effective organization of the country's transport services in the domestic and foreign markets. In this scientific research, the level of use of multi-criteria decision-making methods in solving the problem of location selection of transport logistics centers is highlighted. During the research work, an analysis of the literature related to the topic was first carried out, and the decision-making criteria used in the field were clarified based on them.

Keywords:

decision making, transport logistics center, location problem, evaluation criteria, MCDM, AHP, ELECTRE, PROMETHEE, TOPSIS, VIKOR.

Transport-logistika markazlarini tashkil etishda joy tanlash muammosini yechishda ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullaridan foydalanish

Samatov G.A.¹  ^a, Absattorov I.X.¹  ^b, Xakimov D.Q.¹  ^c, Matrasulov Q.Sh.¹  ^d

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya:

Transport logistika markazlari mamlakat transport xizmatlarini ichki va tashqi bozorda samarali tashkil etishda transport jarayonining muhum bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida transport logistika markazlarining joylashuv joyini tanlash muammosini yechishda ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullaridan foydalanish darajasi yoritib berilgan. Tadqiqot ishini bajarish davomida dastlab mavzuga tegishli adabiyotlar tahlili amalga oshirilgan va ular asosida sohada qo‘llaniluvchi qaror qabul qilish mezonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar:

qaror qabul qilish, transport logistika markazi, joylashuv muammosi, baholash mezonlari, KMQQQ, AHP, ELECTRE, PROMETHEE, TOPSIS, VIKOR.

1. Kirish

Transport-logistika markazi (TLM) har bir davlat uchun muhum infratuzulma ob‘ektlaridan biri hisoblanadi. Ular yuklarni yetkazib berish, transport va logistika xizmatlarini ko‘rsatish orqali davlatning iqtisodiy o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi. Davlat hududida TLMLarini tashkil etish va mavjudularini transport va logistika xizmatlari istemolchilar tomonidan shakillangan ta’labga to‘liq javob bera olish qobiliyatini doimiy tahlil qilib borish va TLMLarni doimiy rivojlantirish choralarini ko‘rish iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. TLMLarining samarali faoliyat ko‘rsatishi ularning hududiy jihatdan joylashuv joylari bilan ham uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ohirgi yuz yill davomida omborlar, yig‘ish va tarqatish markazlari, yuk terminalлari va TLMLarini tashkil qilishda ularga har tamonlama mos keluvchi joylarni tanlashga qaratilgan usullar turli tadqiqotchi olimlar tomonidan ishlab chiqildi,

Tadqiqot ishida TLMLari uchun joy tanlash muammosini hal qilishda qo‘llaniladigan ko‘p mezonli

takomillashtirildi va bugungi kunda ham bu borada jadal ishlar olib borilmoqda. Yetkazib berish tarmog‘ida ob‘ektlarning munosib joylarda joylashishi transport xizmatlari va yetkazib berishning umumiy xarajatlarga tasir ko‘rsatadi. Yetkazib berish tarmog‘i bo‘ylab TLMLarining joylashuvni va soni maxsulotning oxirgi istemolchiga yetib borish narxiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi [1]. Yangi tashkil etilayotgan TLMLari uchun joy tanlash muammosi TLM biznes rejasini tuzishda muhum va chuqur o‘rganib tahlil qilinadigan omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida TLM uchun joy tanlash muammosini yechishda ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullaridan foydalanish va ular orqali erishiladigan natijalarning ishonchlilik darajasi tahlil qilingan.

2. Tadqiqot metodikasi

qaror qabul qilish (KMQQQ) usullaridan foydalanish darajasini aniqlash va ushbu usullar yordamida

^a  <https://orcid.org/0000-0001-6479-6173>

^b  <https://orcid.org/0000-0002-5968-0990>

^c  <https://orcid.org/0009-0009-8894-8915>

^d  <https://orcid.org/0009-0004-3300-9228>



muammoning yechimini toppish darajalarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek TLMlar uchun joy tanlash muammosiga yechim ishlab chiqish jarayonida KMQQQ usullarining birgalikda qo'llash sohasini o'rganish. Har

qanday ilmiy tadqiqot ishini bajarish jaroyoni ilmiylik va tizimlilikga asoslanishi zarur. Quyida 1-rasmda tadqiqot ishini amalga oshirish bosqichlari tasvirlangan.



1-rasm. Tadqiqot ishini amalga oshirish bosqichlari

KMQQQ usullarini qaror qabul qilish jarayonida qo'llash muammoning yechimini tartibli ravishda amalga oshirish va eng yaxshi natijani olishga qaratiladi. Quyida 2-rasmda

KMQQQ usullarining tadqiqot ishini amalga oshirishda qo'llashning bosqichlilik tarifi ko'rsatilgan.



2-rasm. Qarorlarni qabul qilish bosqichlari

2-rasmda keltirilgan qarorlarni qabul qilish bosqichlari odatda qaror qabul qilish usullarda qo'llaniladigan jarayonlardir. Albatta, bu bosqichlar qaror muammosining tuzilishi, hajmi va maqsadiga qarab farq qilishi mumkin.

KMQQQ usullari qaror variantlari orasidan eng yaxshisini tanlash va qarama-qarshi aniq va mavhum mezonlar yoki sifatlarga ko'ra variantlarni tartiblash yoki tasniflash uchun ishlataladigan usullar hisoblanadi.

3. Natijalar

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlarda TLMlari uchun joy tanlashda ko'p mezonlari qaror qabul qilish usullaridan foydalanilgan adabiyotlar tahlili qilib chiqildi. Tahlillar tadqiqot ishlari uchun joylashuv joyiga ta'sir qiluvchi ko'plab mezonlarni (masofa va yer maydoni, xarajat, atrof-muhit, hududning iqtisodiy va jismoniy qobiliyat) va ijtimoiy omillar turkumiga kiruvchi mezonlarni qaror qabul qilish usullaridan foydalanilgan adabiyotlar va ularda qo'llanilgan usullar

o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot ishini bajarish davomida 15 ta TLMlari uchun joy tanlash masalasini hal qilishda ko'p mezonli qaror qabul qilish usullaridan foydalanilgan adabiyotlar tahlil qilib chiqildi. Tahlillar tadqiqot ishlari uchun joylashuv joyiga ta'sir qiluvchi ko'plab mezonlarni (masofa va yer maydoni, xarajat, atrof-muhit, hududning iqtisodiy va jismoniy qibiliyat) va ijtimoiy omillar turkumiga kiruvchi mezonlarni qaror qabul qilish usullaridan foydalanilgan adabiyotlar tahlil qilingan adabiyotlar 1-jadval joylashtirildi

1-jadval

Mualiflar	TLM uchun joy tanlashga ta'sir etadigan mezonlar	Tadqiqotda foydalanilgan usullar
Kurava A.Y.[2]	Iqtisodiy xolat, ijtimoiy xolat, siyosiy va huquqiy xolat, geografik xolat, ekologik xolat, transport infratuzilmasi	AHP
Sheikh Ariful Alam[3]	Magistral yo'ldan foydalanish imkoniyati, intermodal o'tkazuvchanlik sig'imi, port sig'imi, yarning mavjudligi	AHP
Murve Ozturk [4]	Ishchi kuchi, transport turlari (avtomobil, temir yo'l, dengiz va havo transporti) va masofalari, iste'mol – ishlab chiqarish markazlari va sanoat hududlarigacha bo'lgan masofasi, yer xususiyatlari va atrof-muhitga ta'siri.	AHP
Ayshe Merve CAN [5]	Eng yaqin magistralgacha bo'lgan asofa, eng yaqin portgacha bo'lgan masofa, eng yaqin temir yo'lgacha bo'lgan masofa, eng yaqin aeroportgacha bo'lgan masofa, shahar markaziga yaqinlik, kengaytirish imkoniyati, geografik va topografik yaroqlilik, yer narxi, uyushgan sanoat zonasiga masofa	AHP, ELECTRE, TOPSIS
Cihan UYANIK [6]	Xarajat, tabiiy boyliklar, temir yo'lgaga yaqinlik, magistral tizimiga yaqinlik, shahar markaziga yaqinlik, portga yaqinliq, yer maydoni, kengaytirish imkoniyati, sanoat zonasiga yaqinlik, makroiqtisodiy foyda / samaradorlik, atrof	AHP, Fuzzy-AHP PROMETH, TOPSIS



	muhit ta'siri, yuk avtomabillari, qurilishga yaroqlilik (topografiya, geografiya, yer osti tuzilishi), qurilish jarayonining narxi (infratuzilma-suv, elektr, xavfsizlik, yo'l), xizmat ko'rsatish bozoriga kirish imkoniyati, transport va logistika jozibadorligi	ELECTRE, VIKOR
Muhammed BAMYACI [7]	Yer (yer maydoni, yerni kengaytirish imkoniyatlari, yerning infratuzilmasi, yerning jismoniy holati), xarajatlar (yer narxi, ob'ekt narxi, foydalauvchilar uchun narx), yaqinlik (masofa) (ishlab chiqarish markazlariga yaqinligi, iste'mol markazlariga yaqinlik, aeroportga yaqinlik, temir yo'lga yaqinlik, magistral yo'lga yaqinlik, portga yaqinlik (dengiz), ichki suv yo'llariga yaqinlik) ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar (shahar muhitiga ta'siri, shahar transportiga ta'siri, iqtisodiy hayotga ta'siri)	AHP
Fulya ZARALI [8]	Hudud, kengayish maydoni, infratuzilma ob'ektlari, shaharga yaqinlik, sanoat va savdo markazlariga yaqinligi, portga yaqinlik, avtomobil yo'l aloqasi, temir yo'l aloqasi, yer xarajatlari	AHP, ELECTRE, TOPSIS
H.Tezcan UYSAL, Kemal YAVUZ [9]	Portga yaqinlik, aeroportga yaqinlik, yashash joylarigacha bo'lgan masofa, mehnatga kirish imkoniyati, ekologik xavfsizlik, magistral yo'llar va bog'lovchi yo'llarga kirish imkoniyati, trafik zichligi, havoning ifloslanishi, qurilish maydoni, mintaqaviy rag'batlantirish	ELECTRE
Burchin PACHACI va boshqalar [10]	Tashqi savdo, uyushgan sanoat zonalari, qishloq xo'jaligi uyushgan sanoat zonasasi, avtomobil, temir yo'l va suv yo'llariga chiqish	AHP
Krzysztof Witkows va boshqalar [11]	Mahalliy hokimyat, ko'p tarmoqli aloqa infratuzilmasining mavjudligi, aholi soni, iqtisodiy zonalarning mavjudligi, yer narxi, ish haqi, mol-mulk solig'i miqdori, bozorning mavjudligi, malakali kadrlar mavjudligi, rivojlanish rejalar, rejalashtirish hujjatlari yozuvlari, iqtisodiy zonalar hajmi, raqobotdosh markazkar soni, investitsiyalarning jozibadorligi	AHP
Baiyu Chen, Biying Wang [12]	Shahar joylashuvni koeffitsienti, shahar markazlashganligi, bozor farovonligi darajasi, yuk tashish hajmining nisbati, aholi jon boshiga YaIM, aholi soni.	AHP
Kursat Yildiz va boshqalar [13]	Narx (yuk tashish narxi), Transport turlari, yetkazib berish muddati, markazga yaqinlik, muqobil koridorning eng yaqin poezd stantsiyasidan masofasi.	AHP-VIKOR
İsmail Önden va boshqalar [14]	Avto magistralga yaqinlik, temir yo'lga yaqinlik, aeroportlarga yaqinlik, dengiz portiga yaqinlik, xalqaro savdo hajmi, aholi soni, dengiz portlarini boshqarish imkoniyatlari	AHP
Jacek ŽAK, Szymon WĘGLIŃSKI [15]	Viloyatning umumiy maydoni, aholi soni, aholi jon boshiga YaIM, iqtisodiy rivojlanishning o'rtacha darajasi, investitsiya va logistika jozibadorligi, erkin iqtisodiy hududlar soni, infratuzulma, ijtimoiy va ekalogik holat, ishsizlik darajasi, harakat xafsizligi	ELECTRE III/IV
Maria CRISTEA va boshqalar [16]	Iqtisodiy samaradorlik, transport infratuzilmasi, raqobatbardoshlik darajasi, maqsadli bozor, iqtisodiy rivojlanish salohiyati, xorijiy investitsiyalar, eksport darajasi, davlat byudjeti subsidiyalari, ijtimoiy o'chov, ish haqi, xavfsizlik, yashil maydonlar	ELECTRE III

1-jadvalda tasvirlangan adabiyotlar tahlillari natijasida shuni aytishimiz mumkunki TLMlar joylashuv joyini tanlashda qo'llanailadigan usullar, tasiq qiluvchi mezonlar har bir mintaqaga yoki davlatning transport infratuzulmasi va transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib o'zgarishi mumkun.


Tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan adabiyotlar tahlilidan ko'rish mumkunki TLMlar joylashuvini tanlashda

qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi mezonlar tadqiqot ishining amalga oshirilish darajasiga qarab son jihatdan turlicha bo'lishi mumkun ekan. Quyida 2-jadvalda TLMlar uchun joy tanlashda qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi mezonlar tahlil qilingan adabiyotlar bo'yicha umumiy ko'rinishda son jihatdan tasvirlangan va ular 5 ta asosiy guruhga ajratilgan.

2-jadval

Adabiyotlarda foydalilanigan baholash mezonlari va ularning foydalilaniganlik chastotasi

Joylashuv	Mezonlarning adabiyotlarda takrorlanish darajasi			Mezonlarning adabiyotlarda takrorlanish darajasi
			Hovoning ifloslanishi	3
Temir yo'lga yaqinlik	11		Yashil hudud	1
Avtomagistralga yo'liga yaqinlik	12		Yuk tashish hajmi/iqtisodiy aks ettirish	
Aeroportga yaqinlik	10		Makro iqtisodiy ko'rsatgich	4



Suv po'rtiga yaqinlik	7		Avtomobil transportida yuk tashish hajmi	3
Yer maydoni	5		Temir to'l transportida yuk tashish hajmi	3
Kengaytirish imkoniyati	4		Transport va logistika jozibadorligi	4
Iqtisodiy hududlarga yaqinlik	8		Transport infratuzulmasi	5
Qurilish uchun yaroqlilik	3		Xalqaro sovdo hajmi	2
Geografik, tuproq xolati	2		Sovdo markazlari soni	1
Shahar markaziga yaqinlik	8		Rivojlanish darajasi	2
Joylashuv hududi	2		Iqtisodiy tasir	4
Joy infratuzulmasi	4		Tashqi investitsiya	1
Ichki suv yo'llariga yaqinlik	1		Investitsiya darajasi	3
Ishlab chiqarish karxonalariga yaqinlik	5		Biznes muhiti	3
Bozorga yaqinlik	3		Raqobat darajasi	2
Istemolchilarga yaqinlik	2		ijtimoiy omillar	
Xarajat			Xafsizlik va qo'riqlash	3
Yer narxi	4		Aholi soni	3
Tashish xarajatlari	3		Ijtimoiy foyda	2
Atrof-muhit			Yerga egalik shakli	1
Tabiy boyliklar	2		Ishchilar malakasi	2
Ekologik tasir	6		Qonun ustuvotligi va hokimyat organlarining ro'li	4
Ekologik xafsizlik	3		Ijtimoiy barqarorlik	1

Yuqorida 2-jadvalda tasvirlangan mezanlar asosida TLMlari uchun joy tanlash muammosini yechisga KMQQQ usullaridan foydalanish eng samarali usullardan bir deyishimiz mumkun. Chunki KMQQQ usullari ko'plab sohalarda qaror qabul qilish muammolarini hal qilishda, muqobillarni ma'lum mezonlar bo'yicha tartiblash va eng yaxshi muqobilni tanlashda qo'llaniladi [17].

KMQQQ usullari ichida joy tanlash masalasini yechishda eng ko'p qo'llaniladigan usulardan bir AHP (Analytic Hierarchy Process) usulidir. AHP usuli 1977-yilda Tomas L. Saati [18] tamonidan ko'p mezonli muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan. U sifat va miqdori o'zgaruvchilarni tahsil qilish orqali muammolarni hal qiladigan usul hisoblanadi. [19]. Ushbu usul ko'p mezonli muammolarni ierarxik tuzilishda modellashiradi va muammoni tashkil etuvchi asosiy maqsadlar, mezonlar, kichik mezonlar va alternativalarning munosabatlarini olib beradi [20]. AHP muammoni tashkil etuvchi mezonlar va kichik mezonlarning muhimlik darajasini hisoblab, o'lechamlarni qisqartirishni amalga oshiradi. U eng yaxshi mezonni mumkin bo'lgan natijalarga kiritish uchun mezonlarni ahamiyati bo'yicha tartiblash imkoniyatini beradi.

AHP usulini qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ierarxik tuzilmani o'rnatish
 2. Har bir mezon bo'yicha muqobil va mezonlarni juftlik bilan taqqoslash
 3. Nisbiy ahamiyatlari vaznlarni normalash va hisoblash
 4. Konsistensiya koeffitsientini hisoblash
 5. Muqobil uchun har bir mezonning ahamiyatlilik vaznlarini hisoblash
 6. Variantlarning vaznlarini aniqlash
- Adabiyotlarda TLMlari uchun joy tanlash muammosi yechimini topishda qo'llaniladigan usullardan biri ELECTRE (Elimination and Choice Expressing Reality) usuli hisoblanadi va uni Benayoun, Roy va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. ELECTRE usulining asosi har bir mezon bo'yicha muqobillarni juftlik bilan taqqoslash orqali "ustunlik munosabatlarini" o'rnatishdir. TLMlar

uchun joy tanlashda qaror qabul qiliuvchilar ELECTRE usuli orqali ko'plab miqdoriy va sifat mezonlarini kiritishlari mumkun, bu orqali u optimallashtirishga yo'naltirilgan matematik dasturlash usullari qatoriga kiradi. ELECTRE usulidan foydalanishda birinchi amalga oshiriladigan ish har bir mezon bo'yicha muqobillarni juftlik bilan taqqoslashdir. i mezon bo'yicha taqqoslangan muqobillarning muvaffaqiyat qiymatlari $gi(A)$ va $gi(A_k)$ sifatida ko'rsatilgan va ikkala muqobil o'tasidagi farq $gi(A) - gi(A_k)$ sifatida ifodalanadi. Muqobil variyantlar o'rtasida farqni aniqlash uchun ma'lum chegara qiymati aniqlanadi va ikkita muqobil uchun "befarqlik, zaif afzallik, mutlaq afzallik yoki taqqoslanmaydi" degan xulosaga keladi.

TLMlari uchun joy tanlashda turli ta'sir qiluvchi mezonlar mavjudligini hisobga olsak juftlik taqqoslash munosabatlari yoki boshqacha aytganda, ustunlik munosabatlari majmuuni aniqlash juda muhumdir. ELECTRE usuli mezonlar har xil ahamiyatga ega bo'lgan holatda ularning ahamiyat darajasini aniqlash uchun mezonlarga og'irlik qiymatlarini berish imkoniyatiga ega.

ELECTRE usuli ustunlik munosabatlari to'plamini aniqlash natijasida muqobillarning bir-biridan ustunligini isbotlash uchun muvofiglik indeksini hisoblab chiqadi. Bu TLM uchun joy tanlash muammosiga qaratilgan yechimning ishonchiligini taminlaydi. Bundan tashqari, ELECTRE usuli yordamida kelishmovchilik indeksini va uning qaramaqarshi ko'rsatkichini, ya'ni kelishmovchilikni keltirib chiqaradigan indeksni hisoblab chiqish mumkun. Shuning uchun, ELECTRE usuli yordamida TLM uchun tanlangan muqobil joyni ustunlik munosabatlari asosida turli xil variantlar orasidan ajratib olish mumkun. ELECTRE usuli ayniqsa, mezonlari kam, ammo muqobillari ko'p bo'lgan qaror qabul qilish muammolari uchun yaxshi natijalar beradi [21]. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkunki, ELECTRE usulini TLM uchun joy tanlashda bir nechta muqobil joylar ichidan joy tanlash muammosiga ta'sir qiluvchi mezonlar kam bo'lgan holatda qo'llash ko'p samara berar ekan. ELECTRE usuli oilaniga kiruvchi ELECTRE I, II, III, IV, IS, TRI usullari mavjud. Ular qaror qabul qilish



muammolariga qaratilgan turli yondashuvlar va qo'llanilish sohalariga ko'ra ELECTRE usulining takomillashtirilgan yoki moslashtirilgan usullaridir. Bir-biridan kichik farqlar bilan farq qiladigan ushbu usullar yordamida qaror qabul qiluvchi muqobil variantlarning ko'plab miqdoriy va sifat mezonlarini kiritish orqali muammoga qaratilgan muvofiq mezonlarning ahamiyatini aniqlashi va tegishli muqobil variantlar ichidan eng muqobilini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi [22]. Joy tanlash masalalariga qaratilgan tadqiqot ishlarida ELECTRE, ELECTRE I, ELECTRE III va ELECTRE IV usullari eng ko'p qo'llaniladi. ELECTRE usulidan foydalanishda 3-jadvalda berilgani kabi ko'p mezonli qaror jadvali tuziladi.

3-jadval

ELECTRE usulida Ko'p mezonli qarorlar jadvali

Muqobillar				
	c_1	c_2	...	c
a_1	$g_1(a_1)$	$g_2(a_1)$...	$g_n(a_1)$
a_2	$g_1(a_2)$	$g_2(a_2)$...	$g_n(a_2)$
...
a_m	$g_1(a_m)$	$g_2(a_m)$...	$g_n(a_m)$

Bu yerda a muqobil joyni va c ularga mos mezonlarni belgilaydi.

Shuningdek TLM uchuj joy tanlash muammosini yechishda qo'llash mumkun bo'lgan KMQQQ usullardan biri PROMETHEE (Preference Ranking Organization Method for Enrichment Evaluations) 1982 yilda Kvebekda (Kanada) bo'lib o'tgan konferentsiyada J. P. Brans tomonidan taqdim etilgan KMQQQ ustuvorlik usulidir. PROMETHEE usulining maqsadi amalga oshirish jarayonida tadqiqotlarda qo'llaniladigan ustuvorlik usullarining qiyinchiliklarini kamaytirishdir. Bu usul boshqa ko'p mezonli qaror qabul qilish usullariga nisbatan soddaroq tuzulgan susul hisoblanadi. Ko'plab qaror qabul qilish usullari murakkab tuzilishga ega bo'lib, ulardan foydalanish jarayonida tadqiqotchilarda turli tushunmovchiliklar vujudga kelishi mumkun. PROMETHEE usulining soda tuzilishga ega ekanligi uning boshqa qaror qabul qilish usullaridan ajratib turuvchi jihatidir.

PROMETHEE usuli 7 bosqichdan iborat [23] va bular:

- ma'lumotlar matritsasini yaratish
- mezonlarga ustunlik funksiyalarini aniqlash
- umumiy afzallik funksiyalarini aniqlash
- afzallik indekslarini aniqlash
- muqobil variantlar uchun ijobjiy (PH+) va salbiy (P-) afzalliklarni aniqlash
- PROMETHEE I bilan alternativlar uchun qisman ustuvorliklarni aniqlash
- PROMETHEE II bilan muqobillar uchun aniq ustuvorliklarni aniqlash

PROMETHEE usuli muqobillarni eng yaxshidan eng yomonigacha tartiblash uchun ishlataladi. U odatda qaror qabul qilish jarayonida har bir mezonning ahamiyatini baholash uchun ishlataladi. PROMETHEE usulini TLMlari uchun joy tanlashda qaror qabul qilish uchun qo'llash joylashuv o'rnnini tanlashga tasir qiluvchi mezonlarning afzal ko'rish darajalarini tushunish, muqobil bir hil variantlarni aniqlash, ma'lum mezonlar bo'yicha muqobillar orasidan eng ko'p mos keluvchi muqobillarni aniqlash va

muqobillarni orasidagi farqlarni aniqlash mumkin.

Ob'ektlarni joylashtirish masalalarini yechishda foydalaniladigan usullardan biri TOPSIS (Technique for Order of Preference by Similarity to Ideal Solution) usulidir. TOPSIS usuli 1981-yilda Xvang va Yoon tomonidan ishlab chiqilgan [24]. TOPSIS ko'p mezonli qaror qabul qilish usuli bo'lib, u n ta muqobil va m mezondan iborat qaror muammosiga sifatlari tarjima qilinmasdan bevosita ma'lumotlarga qo'llanilishi mumkun. Kichik miqdordagi kirish parametrlari bilan oson tushunarli natijalarini ta'minlovchi TOPSIS usulida tanlangan muqobil ideal yechimga eng yaqin bo'lishi kutiladi, ideal yechim bo'limgan alternativdan esa eng uzoqda bo'lishi kutiladi [25]. TOPSIS usulida quyidagi yechim bosqichlarini bajarish mumkin.

- muammoning maqsadlari va baholash mezonlari aniqlash
- qaror matritsasini yaratish (A)
- standart qaror matritsasini (R) yaratish
- Og'irlangan normalangan qaror matritsasi (V) yaratish.
- ijobjiy ideal (A+) va salbiy ideal (A-) yechimlarni yaratish
- ajratish choralarini hisoblash
- ideal yechimga nisbatan yaqinlikni hisoblash

TLMlari uchun joylashuv joyini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borishda VIKOR usulidan ham foydalaniladi. Ushbu usul ko'p mezonli kompleks tizimlarni optimallashtirish uchun Yu va Zeleniy tomonidan ishlab chiqilgan. VIKOR usul 2004 yilda Opricovic va Tzeng tomonidan turli o'chov birliklari bilan olingan ma'lumotlar guruhlarida qo'llanilishi mumkun bo'lgan ko'p mezonli qaror qabul qilish usuli sifatida takomillashtirilgan. VIKOR usuli qarama-qarshi mezonlar bilan qaror qabul qilish muammosiga umumiyligi yechim taklif qiladi va idealga eng yaqin muqobil yechimni ko'rsatadi. TLMlari uchun joy tanlash muammosini yechishda qaror qabul qilishda ta'sir etuvchi mezonlar mayjudligi sababli ushbu jarayonda VIKOR usulidan foydalanish kerakli yechimni topishda yaxshi ish beruvchi usul xisoblanadi [26]. VIKOR usulida boshqa KMQQQ usullaridan farqli ravishda mezon og'irliliklari teng deb hisoblanadi va turli usullardan olingan qiymat og'irliliklari ham hisoblashni dasturi bosqichlariga kiritilishi mumkin. VIKOR usulidan foydalanish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:


- eng yaxshi va eng yomon mezonlarni aniqlash
- aniqlangan mezonlarni muvofiqlashtirish jarayoni (qaror matritsasini tuzish)
- muvofiqlashtirilgan matritsani og'irligini o'chash
- qiymat mezonlarni hisoblash
- mezon og'irliliklarni hisoblash
- variantlarni saralash va shartlarni tekshirish

Muqobil variyant quyidagi ikkita shartga tekshiriladi:

1-shart. Qabul qilinadigan afzallik

2-shart. Qabul qilinadigan barqarorlik sharti [27].


Ushbu shartlarga javob bergan muqobil yechim muammonini eng yaxshi yechimi sifatida olinadi. TLMlari joylashuvini tanlash muammosini yechishda yuqorida sanab o'tilgan KMQQQ usullardan birgalikda faydalinish mumkun.



4. Muhokama

KMQQQ usullar asosan biron bir sohada tegishli muammo yechimi bo'yicha qaraor qabul qilishda samarali yechimga ega bo'lishni ta'minlaydi. KMQQQ usullarini TLMlarining joylashuv muammosida qo'llanilishi, baholash jarayoni uchun to'g'ri qaror mezonlarini tanlashda juda muhum bo'lib, u yechimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. TLMlarining joylashuvini tanlash muammosini KMQQQ

usullaridan foydalangan holda turli nuqtai nazardan o'rganib chiqish va muammoni baholash uchun turli mezonlarni shakillantirish mumkun. Yuqorida yoritib o'tilgan qaror qabul qilish usullarini TLMlari joylashuvini tanlashda to'loqonli yechiga erishish vositasi sifatida talqin etib bo'lmaydi. KMQQQ usullarining TLMlari joylashuvini tanlashda 3-rasmida tasvirlangan tartibda amalga oshirish mumkun.



3-rasm. KMQQQ usullarini TLM uchun joylashuv joyini tanlashda qo'llash

TLMlari uchun joylashuv muammosini yechishga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijalari va tadqiqotchi olimlar tamonidan yaratilgan usullar tahlili shuni ko'rsatadi, bugungi kunda TLMlari uchun joylashuv muammosini yechish uchun butun dunyoda bir xilda to'liq yechimga erishish imkonini beruvchi mukammal usul mavjud emas. Mavjud usullar qaysidir jihatlari bo'yicha muammoni yechimini topishda malum bir og'ish chegaralariga ega. Bundan kelib chiqadigan aytishimiz mumkunki bugungi kunda TLMlarini joylashtirish joyini tanlashqa qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va joy tanlash muammosini yechishda qo'llaniladigan mavjud usullarni takonillashtirishga yetarilcha talab mavjud. Biz yuqorida tahlil qilgan va bayon etgan KMQQQ usullarini yakka tartibda emas, balki o'zaro hamjihatlikda qo'llash yuqori samaradorligi biz tahlil qilgan adabiyotlarda erishilgan natijalarda yaqqol namoyon bo'lgan.

5. Xulosa

Transport logistika markazlarini har tamonlama qulay joyga joylashtirish ularning transport xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirishda muhum ahamiyat kasb etadi. TLMlari joylashuv joyini tanlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot

ishlarini olib borish darajasini oshirish va ularda erishilgan natijalarni sohaga jalgan qilish yurtimizda transport xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy maqola transport logistika markazlari geojoylashuvini asoslashga qaratilgan PhD dissertatsiya ishi doirasida tadqiqot ishi muammosini kengroq o'rganish maqsadida amalga oshirildi. Albatta, ushbu ilmiy maqola mazmun jihatidan to'liq yakunlanmagan hisoblanadi va u tadqiqot ishi uchun ilmiy yangiliklarni ishlab chiqishda dasturiy amal vazifasini bajaradi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari ushbu mavzuga bag'ishlangan navbatdagi ilmiy maqolalarda bayon etiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar / References

[1] T. Vojislav, M. Dragan, M. Danijel. The Selection of Logistic Centers Location Using Multi-Criteria Comparison: Case Study of the Balkan Peninsula. Acta Polytechnica Hungarica Vol. 11, No. 10, 2014.

[2] Куррова А.Ю. Организационно-методическое обеспечение процессов формирования и функционирования логистических центров. диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2015



[3] Sheikh Ariful Alam. Evaluation of the potential locations for logistics hub: A case study for a logistics company. Master's thesis. Division of Transport and Location Analysis Department of Transport Science KTH Royal Institute of Technology SE-100 44 Stockholm, Sweden. 2013

[4] Murve Ozturk. Lojistik merkezlerin kuruluş yeri seçimini etkileyen kriterlerin belirlenmesine yönelik bir araştırma. Yüksek lisans tezi. İstanbul üniversitesi. İstanbul, 2017.

[5] Ayşe merve can. Çok krđterlid karar verme tekniklerd dle samsun lojđstik köyü yerđndn beldrlenmesd. Yüksek lisans tezi. Ercdyes ündversdtesd. Kayserđ temmuz 2012

[6] Cihan Uyanik. An integrated dematel – intuitionistic fuzzy topsis methodology for logistics centers location selection. Master Thesis, Marmara universtiyy. October, 2016

[7] Muhammed bamyaci. Modern lojistik yönetimi: organize lojistik bölgeleri için bir yer seçimi modeli. Doktora tezi. İstanbul üniversitesi fen bilimleri enstitüsü Mart, 2008. İstanbul.

[8] Fulya zarali. Lojistik merkezi yer seçimi ve yerleştirme problemi. Doktora tezi. Sakarya üniversitesi. Sakarya Haziran 2018

[9] H.Tezcan Uysal, Kemal Yavuz Selection of Logistics Centre Location via ELECTRE Method: A Case Study in Turkey. International Journal of Business and Social Science. Vol. 5, No. 9; August 2014.

[10] Burçin PAÇACI, Serpil EROL, M. Kürşat ÇUBUK. Çok modlu taşımacılığa uygun lojistik merkez yer seçimi için bir öneri: Türkiye uygulaması. Journal of Polytechnic. ISSN: 1302-0900 (PRINT), ISSN: 2147-9429 (online).URL: <http://dergipark.org.tr/politeknik>

[11] Krzysztof Witkowski, Maria Mrówczyńska, Anna Bazan-Krzywoszańska, Marta Skiba. Methods for determining potential sites for the location of logistics centres on the basis of multicriteria analysis. <http://dx.doi.org/10.17270/J.LOG.2018.282>. LogForum. Scientific Journal of Logistics. 2018, 14 (3), 279-292

[12] Baiyu Chen, Biying Wang. Location Selection of Logistics Center in e-Commerce Network Environments. American Journal of Neural Networks and Applications. Vol. 3, No. 4, 2017, pp. 40-48. doi: 10.11648/j.ajnnna.20170304.11

[13] Kursat YILDIZ, Caglar TABAK, Mehmet Akif YERLIKAYA, Burak EFE. A Logistics Model Suggestion for A Logistics Center to Be Established: An Application in Aegean and Central Anatolia Region. Journal of Science. GU J Sci 35(1): 73-90 (2022). DOI: 10.35378/guj.s.844650.pp.73-90.

[14] İsmail Önden, Avni Zafer Acar, Fahrettin Eldemir. Evaluation of the logistics center locations using a multi-criteria spatial approach. Transport issn 1648-4142 / eissn 1648-3480. 2018 Volume 33(2): 322–334. doi:10.3846/16484142.2016.1186113

[15] Jacek ŻAK, Szymon Węgliński. The selection of the logistics center location based on MCDM/A methodology. 17th Meeting of the EURO Working Group on Transportation, EWGT2014, 2-4 July 2014, Sevilla, Spain. Transportation Research Procedia (2014) 555 – 564

[16] Maria Cristea, Ciprian Cristea. A multicriteria decision-making approach used for the selection of a logistics center location. Annals of the university of Oradea Fascicle of Management and Technological Engineering

ISSUE #1, May 2016, <http://www.imtuoradea.ro/auo.fmte/>. Pp.47-52

[17] Rahim Arslan. ÇOK KRİTERLİ KARAR VERME YÖNTEMLERİNİN KARŞILAŞTIRILMASI ve BÜTÜNLLEŞTİRİLMESİ: OECD VERİLERİ ÜZERİNE BİR UYGULAMA. Doktora Tezi .Sivas Temmuz 2018

[18] Saaty TL. The Analytic Hierarchy Process. New York: McGraw-Hill Inc; 1977.

[19] SAATY, T.L. "Axiomatic Foundations Of The Analytic Hierarchy Process", Management Science, 32(7), (1986), s. (841-855).

[20] DİNÇER, H. ve Görener, A., "Analitik Hiyerarşı Süreci ve VIKOR Tekniği İle Dinamik Performans Analizi: Bankacılık Sektöründe Bir Uygulama", İstanbul Ticaret Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Yıl:10 Sayı:19 (Bahar 2011), s.(109-127).

[21] LOOTSMA, F., "The French And The American School İn Multi-Criteria Decision Analysis, Revue Française D'automatique, D'informatique Et De Recherche Opérationnelle", Recherche Opérationnelle, 24(3): (1990), s. (263-285).

[22] YOON, K.P. and HWANG, C. "Multible Attribute Decision Making: An Introduction", Sage University Paper Series on Quantitative Applications in The Social Science,. Thousand Oaks.CA:Sage. (1995). S. (07-104)

[23] Dağdeviren M, Eraslan E. Promethee Sıralama Yöntemi İle Tedarikçi Seçimi. Gazi Üniversitesi Mühendislik Mimarlık Fakültesi Dergisi 2008;23:69–75.

[24] WEİ Jianli, "TOPSIS Method for Multiple Attribute Decision Making with Incomplete Weight Information in Linguistic Setting", Journal of Convergence Information Technology, 5(10), (2010), s. (181-187).

[25] ÖZDEMİR Muhlis, "TOPSIS", (Bahadır Fatih YILDIRIM ve Emrah ÖNDER), Çok Kriterli Karar Verme Yöntemleri, Dora Yayıncılık 2015, s. (133-153).

[26] ERTUĞRUL, İ. ve Özçil, A. "Çok Kriterli Karar Vermede TOPSIS ve VIKOR Yöntemleriyle Klima Seçimi", Çankırı Karatekin Üniversitesi İktisadi Ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, , Cilt 4, Sayı 1: (2014), s. (267-282).

[27] KUZU Sultan, "VIKOR Yöntemi", (Fatih Yıldırım, Emrah ÖNDER), Çok Kriterli Karar Verme Yöntemleri, Dora Basım Yayın Dağıtım Ltd. Şti. 1. Baskı, Bursa 2014, S. (117-125).

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Samatov G'affor / Toshkent davlat transport universiteti, "Transport logistikasi" kafedrası müdürü, i.f.d. prof, E-mail: transportlogistikasi@mail.ru; Tel: +99897 404 90 56
<https://orcid.org/0000-0001-6479-6173>

Absattorov Isomiddin / Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktarantı,
Isomiddin E-mail: isomiddinabsattarov@gmail.com
Absattorov Tel: +99894 574 59 97
<https://orcid.org/0000-0002-5968-0990>

Xakimov Diyorbek / Toshkent davlat Transport universiteti "Transport logistikasi" kafedrası assistenti,
Diyorbek E-mail: xakimovdiyorbek1817@gmail.com
Khakimov Tel.:+99897 966 86 87
<https://orcid.org/0009-0009-8894-8915>

Matrasulov Qahramon / Toshkent davlat Transport universiteti "Transport logistikasi" kafedrası assistenti,
Kahramon E-mail: kaxramonmatrasulov207@gmail.com
Matrasulov Tel: +99890 807 82 07
<https://orcid.org/0009-0004-3300-9230>

